

Sigir voqeasi



15:00 / 02.01.2023 4400

Muso alayhissalom Allohga duo qildi. Pok Parvardigor Bani Isroil qavmiga bir sigir so‘yishni vahiy orqali buyurdi. Xuddi mana shu yerda masala chigallashdi. Bani Isroil yana masxaraomuz savollarini boshlagandi.

«Eslang! Muso o‘z qavmiga:

- «Alloh bir sigir so‘yishlaringni buyurdi, deganda ular:

- «Ustimizdan kulyapsanmi?» –dedilar.

Muso dedi:

- «Unday johillardan bo‘lib qolishdan Alloh pano

berishini so‘rayman».

Yana savol jo‘natib: Ular dedilar:

- «Parvardigoringga duo qil, uning qandayligini bayon qilsin».

(Muso dedi):

- «U zotning aytishicha, u qari ham, yosh g‘unajin ham bo‘lmagan o‘rta bir sigirdir. Endi farmonni ado etinglar».

Ular shu yerda ham to‘xtashmadi. Endi sigirning rangini surishtira boshlashdi.

Ular dedilar:

- «Parvardigoringga duo qil. Uning rangini bayon qilsin».

(Musso) aytdi:

- «U zotning aytishicha, u ochiq-mallarang sigir bo‘lib, ko‘rganlarning ko‘ngli chog‘ bo‘ladi».

Hech qanday savol topa olmaganlaridan keyin umumiy qilib yana bir marta so‘rashdi:

Ular aytdilar:

- «Parvardigoringga duo qil, uning qandayligini bayon qilsin, bu mol bizga ishtibohli bo‘lib qoldi. Inshaalloh, endi yo‘limizni **topib olamiz**».

(Musso) aytdi:

- «U zotning aytishicha, u shunday bir sigirki, xor bo‘lib yer haydamaydi, u bilan (suv tashib) **ekin sug‘ormaydilar**, aybu nuqsonsiz, unda o‘z rangidan boshqa rang-bo‘yoq yo‘q».

Ular bu gal muvofiq bo‘ldilar. Chunki ular: «Inshaalloh endi yo‘limizni topib olamiz», deb aytishgan edi. Bas yo‘lni topishdi.

Lekin Bani Isroil so‘rayverib, o‘ziga-o‘zi og‘ir qilib qo‘ygandi. Agar ular to‘g‘ri kelgan bir sigirni so‘yanlarida ham kifoya qilgan bo‘lardi.

O‘zlari qattiq olganidan keyin, Alloh ham ularga qattiq qilib qo‘ydi. Bani Isroil aytilgan ochiq-mallarang sigir, ko‘rganlarning ko‘ngli chog‘ bo‘ladigan yer haydamaydigan, u bilan (suv tashib) ekin sug‘orilmaydigan, aybu nuqsonsiz, unda o‘z rangidan boshqa rang-bo‘yoq yo‘q sigirni uzoq qidirdi. Chunki yuqoridagi sifatlarga ega bo‘lgan sigir juda ham kam uchrardi.

Sigir yo qari yoki yosh bo‘lar edi. Bir sigir o‘rta yoshli bo‘lsada ochiq mallarang bo‘lmas edi. Yana biri o‘rta yoshli va mallarang bo‘lsada lekin ko‘zni quvontirmas edi.

Yana biri oʻrta yoshli va mallarang va koʻzni quvontiradigan boʻlsada lekin u yer haydardi.

Va yana biri oʻrta yoshli va mallarang va koʻzni quvontiradigan va yer haydamaydigan boʻlsada lekin u ekinlarga suv tashirdi. Qidiraverdilar, qidiraverdilar. Nihoyat surishtiraverishning oqibatini tushundilar. U nima? Rangi qanday? U qanaqa? Kabi savollarni beraverib charchashdi.

Alloh taolo bir yetimning baxtini ochdi. Vahiyda taʼriflangan sigir faqat mana shu yetimda bor edi. Bani Isroil sigirni juda qimmat pulga sotib oldilar.

«Bas, uni soʻydilar. Sal boʻlmasa, qilmasdilar»

Alloh taolo oʻldirilgan kishini sigirning bir boʻlak goʻshti bilan urishni buyurdi. Shunda oʻlik tirilib qotilining nomini aytadi.

Xuddi shunday boʻldi....

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad